

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

*Tarix fakulteti "Milliy g'oya, Ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi" yo'nalishi 404-guruh talabasi
Qo'rg'onov Husniddinning*

REFERAT

Mavzu: Ma'naviyat va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni



Ilmiy rahbar:
Kafedra mudiri:

U. Musayev.
M. Sobirova.

TOSHKENT-2014

Mavzu: Ma'naviyat va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni

REJA:

I. Kirish

II. Asosiyqism

- 1) Ma'naviyat tushunchasi. I.A. Karimovning ma'naviyatga bergan ta'rifi.
- 2) Ma'naviyatning jamiyat hayotida tutgan o'rni.
- 3) O'zbekiston - ma'naviy o'zgarishlar davrida.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Rivojlanishning mohiyati, uning su'rati jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarda insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Qayerda ma'naviy rivojlanish yuksak bo'lsa, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu yerda jamiyat ijtimoiy adolat mezonini asosida tez taraqqiy qilganligi tarixdan ma'lum. Hayotimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. SHu boisdan ham, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihat¹dan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi biz uchun muhim masalaga aylandi. Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga ni hojatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi hisoblanadi.

Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyat munosib egalari. Shuning uchun har bir o'g'il-qizimiz daslabki qadamlaridan boshlab madaniy boyligimizdan bahramand bo'lishi kerak. Mustaqil respublikamiz bugungi ma'naviy hayotida asrlarga teng sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi. Milliy an'analarimiz va asriy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, ularning hayotimizdagi o'rnini yanada mustahkamlanmoqda. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish rivojlanishning o'ziga xos yo'lida borayotgan mamlakatimizning taraqqiyotini ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi bugun yaqqol ko'rib turibmiz. Zero, fuqorolarni milliy istiqbol g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalashda ma'naviyatning ro'li beqiyos ekanligi hammaga ma'lum. Mamlakatimizda xalqimiz ma'naviyatni tiklashda prezidentimiz Islom Karimovning ro'li katta hisoblanadi. Yurtboshimizning "O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shart-sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari", "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "Jamiyatimizning mafkurasi xalqni-xalq, Millatni-millat qilishga xizmat qilsin", "Milliy istiqbol mafkurasi-xalq e'tiqodi va Buyuk kelajakka ishonidir", "Ma'naviy yuksalish yo'lida", "O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Maktab taraqqiyot, ma'naviyat va saodat kalit", "Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liq", "Inson uning huquq va erkinliklari oiliy qadriyat", "Inson xotirasi-muqaddas, inson qadri² ulug'" va boshqa asarlarida zamonaviy milliy ma'naviyatimiz asoslari ishlab chiqilgan. Bu asarlarda milliy ma'naviy tiklanish va ma'naviyatni rivojlantirish g'oyalari asoslangan, ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berilgan. Yurtboshimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida yurtboshimiz ma'naviyat, odob-axloq haqida ko'plab fikr-muhohazalarni aytib o'tganlar. Ularning o'zaro bog'ligi, shaxs hayotida va faoliyatidagi o'rnini haqida

¹ S.N.Nosirxo'jayev va boshqalar "Ma'naviyat asoslari" T. "Turon iqbol" 2007 y

² I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T. "Ma'naviyat" 2008y

ta'kidlab o'tganlar va ko'plab misollar orqali izohlaydi. Islom Karimov ta'kidlaganidek, Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini barcha qarashlarining mezzonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz. Ma'naviyat, deb yana shuni aytadilarki, "insongga ona suti, jta namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi" Inson hayot tajribasi, bilimi, odob-axloqi, hatti-hakati bilan o'zining ruhiy olamini Boyitib boradi, shularni hisobga olib biz kurs ishini "Odob, Axloq, Ma'naviyat" deb nomladik.

Kurs ishining maqsadi: Ma'naviyat farzandlarimizning ma'naviy qiyofasi, milliy ma'naviya qadriyatlarimizning farzandlarimiz ongida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti barcha davlatlarda rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati, insonlarning odobi, tarbiyasi, xulqi va ma'naviy kamoloti darajasiga bo'g'liq bo'lgan. Qayerda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, axloqiy kamolot yuksak bo'lsa, tarbiyaviy tadbirlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu yerda jamiyatning ijtimoiy adolat mezonlari tez rivojlanadi. Biz qurayotgan mustaqil O'zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyatning uch muhim tomoni bor: iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy. Ular qancha mustahkam baquvvat bo'lsa, kelajagimiz shunchalik baquvvat bo'lib, jamiyat tez rivojlanadi. Odob-axloq me'yorlari kecha yoki bugun o'ylab topilgan narsa emas.

Kurs ishining vazifasi: Ma'naviyat va jamiyatning o'zaro bog'liqlik yo'llarini aniqlash, ularni qanday ta'sir usullarini bilib olish, hamda shunda doir metodik tavsiyalar berish.

Abdulla Avloniyning talim-tarbiyaga oid asarlaridan biri bo'lgan "Turkiy guliston yoxud axloq" hisoblanadi. Bu asarda muallif, avvalambor, axloq masalalariga murojaat qilgan. Abdulla Avloniy odamlarni axloqiy jihatdan turli xil toifalarga bo'ladi va har qaysi toifaga xos bo'lgan sifatlarni izohlaydi. Abdulla Avloniy bolalarga ilk yoshidan boshlab axloq va odob tarbiyasini berish kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha bolalarda axloqiy me'yorlarning tarkib topishida muhit, sharoit va kishilar g'oyat katta ro'l o'ynaydi. Haqiqiy insoniy axloqli kishilar yoshlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib ularning mehrli, sadoqatli, sofdil, odobli bo'lib o'sishlariga sabab bo'ladi. Ana shu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda ushbu kurs ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ma'naviyat tushunchasiga izoh berish;
- I.A. Karimovning ma'naviyatga bergan ta'riflari mohiyatini yoritish;
- Ma'naviyatning jamiyat hayotida tutgan o'rnini aniqlash;
- O'zbekistonda ma'naviy – ma'rifiy o'zgarishlarni ilmiy asoslab berish.

1. Ma'naviyat tushunchasi.

I.A. Karimovning ma'naviyatga bergan ta'rifi

Ma'naviyat haqida har qancha gapirish, yozish mumkin. Ammo ma'naviyat falsafa emas, dunyoni har qancha izohlab berganingiz bilan, qonun-qoidasini aniqlab, tushuntirib berganingiz bilan siz aqlli, bilimdon, mantiqiy fikrlovchi odam sifatida qadrlanishingiz mumkin, ammo bular sizni ma'naviy barkamol ekanligingizdan dalolat bermaydi. Yana Siz o'ta iste'dodli bo'lishingiz, Vatan haqida, mustaqillik haqida ajoyib qasidalar bitishingiz mumkin. Albatta, iste'dod ham ma'naviyat nishonasi, ammo ta'rifu tavsiflar bilan Vatan ravnaqi ta'min etilmaydi, mustaqillik mustahkamlanmaydi. **Mustaqillik ma'naviyatining bosh mezon, asos-poydevori mas'uliyat tuyg'usidir.**

Necha ming yillik tarix davomida ne-ne xoqonlaru xonlar, amirlaru shohlar o'tdi. Ularning birlari millat dovrug'ini dunyoga tarqatgan bo'lsalar, boshqalari yurti abgor qilganligi ham sir emas. Oxirgi yuz yil davomida yurtimizning etakchi o'g'lonlari foje taqdirga ro'baro' keldilar.

Sobiq "SSSR"ning xomashyo bazasi bo'lmish markaz manfaatlariga qat'iy bo'ysunuvchi yagona tizim zanjiriga qo'l-oyog'i, har bir hujayrasi bilan chambarchas bog'lab tashlangan respublikaning asli nochor iqtisodiy-ishlab chiqarish binosi, "SSSR" parchalangach, butkul xarobaga aylangan edi. Islom Karimov bozor iqtisodiga o'tish yo'lidagi islohotlarni shunday murakkab sharoitda, shunday nosoz poydevorga tayanib amalga oshira boshladi. Bugungi kunda O'zbekistonning ahvoli Mustaqil davlatlar hamdo'stligida barqarorligi va ijobiy siljishlari bilan ajralib turipti. Ammo biz iqtisodiy masalalarga batafsil to'xtalmoqchi emasmiz.

Bugungi kunda aytish mumkinki, O'zbekiston jahon miqyosida o'ziga xos barqaror siyosiy mavqe kasb etib turipti. Jahonning eng ilg'or davlatchilik an'analari o'zbekning milliy tabiati bilan, o'z qadim udumlari bilan uyg'unlashtira olgan Konstitutsiyamiz – mustaqil mamlakatning Asosiy qonuni - har bir sohada batafsil ishlab chiqilayotgan qonun va kodekslar bilan amalda qo'llanib, mustahkamlanib bormoqda. Bozor iqtisodiga o'tish, mamlakatning ichki iqtisodiy tizimini uyg'unlashtirish, ilg'or texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish borasida o'tgan yillar ichida ulug' ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ijtimoiy uyg'unlik, barqaror osoyishtalik, xalq birdamligi fikrlar, qarashlar xilma-xilligi bilan bahamjihat rivojlanmoqda. Turli siyosiy partiyalar o'z mustaqil yo'nalishlarini shakllantirib, siyosiy muhorabaning madaniyatli usullarini, demokratik tamoyillarni o'zlashtirib bormoqdalar. *"Vatan manfaati, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi bor, g'ayratli, kuyunchak"*³, ayniqsa, bugungi kun millat ehtiyoji va jahon talablariga javob bera oladigan yosh va talantli avlod asta-sekin maydonga kirmoqda. Xullas, yutuqlar bisyor. Eng muhimi, xalq, millat o'zligini anglab bormoqda.

³ Islom.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlo, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar. 1-jild, T.- «O'zbekiston»- 1996, s. 245.

Ammo, baribir, xotirjamlikka o'rin yo'q. Chunki muammolar hanuz etarli. Jumladan, kishilarimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi borasida qiyinchiliklar ko'ngildagidek bartaraf etildi, deyish qiyin. Insonlar ongining eski aqidalar asoratidan poklanishi oson savdo emas ekan. Ayniqsa, yurtning etakchilari bo'lishi lozim bo'lgan ziyolilarimiz ruhiga singib ketgan ko'nikmalarni engib o'tish mashaqqati har qadamda sezilib qolyapti. Agar katta-kichik rahbarlar ham odatan ayni shu ziyolilar toifasi ichidan etishib chiqishini inobatga olsak, vaziyatning jiddiyligi yanada oydinlashadi.

Iqtisodiy va siyosiy islohotlar xalq ongiga teran etib borishi, amalda jadal o'zgarishlar hosil qilishi uchun insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Biz totalitar davlat mulkiga asoslangan iqtisodni rad etib, mulkchilik shakllarining turli-tumanligiga asoslangan erkin bozor iqtisodiga o'tmoqdamiz. Siyosatda yakka partiya, yagona mafkura zo'ravonligiga barham berib, ko'p partiyaviylik, fikr va qarashlar xilma-xilligiga yo'l ochmoqdamiz. Lekin insonlar tafakkurini eski andazalar, tor qoliqlar tugal tark etishi qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Tafakkurimiz, qarashlarimizdagi yangi tamoyillar hanuz ancha yuzada, ongimizning sirtqi qatlamlarida qolib ketmoqda, ba'zan yangi qadriyatlarni ham eski o'lchovlar bilan baholashga urinmoqdamiz. Shunday ekan, insonlar ongida tub o'zgarishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ma'naviyat va mafkuraga alohida e'tibor qaratilishining bosh sababi ham shunda.

Inson agar Haq yo'lida astoydil urinsa, ko'p ish qo'lidan keladi. Ammo insonlarda faqat fazilatlar emas, qusurlar ham bor. Masalan, g'aflat, shahvatparastlik, takabburlik. Insoniy illatlar ichida eng qattoli – xudbinlik balosi, nafs balosidir. Bu kasallik jami ahli basharga begona emas. Shunga qaramay, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida jamiyat bu illatni qandaydir hududlarda jilovlashga erishgan. Har bir inson o'z huquqi va mas'uliyati me'yorlarini muayyan o'lchovlarda saqlab borishga odat hosil qilgan. Afsuski, sobiq totalitar tuzum davrida ayni shu me'yorlarning asos tomirlari qirqib tashlandi, tub ma'naviy negizlariga jiddiy rahna solindi. Kommunistik aqidaparastlar diktaturasi 70 yil davomida, izchil sur'atda million-million xalqlarni yalpi manqurtlashtirish siyosatini olib bordi. Bu tuzum turli millat, turli o'lkalarni majburiy ravishda bir partiya izmiga bo'ysundirgan qurama mamlakat aholisini millatsiz, ma'naviyatsiz, mustaqil o'y-fiksiz "kommunizm quruvchilari" atalmish qiyofasiz mavjudotlarga, dunyoga hukmdorlik orzusida bo'lgan kichik bir guruhning irodasini quloq qoqmay ijro etuvchi ulkan mexanizmning "parrak" va "vintcha"lariga aylantirish niyatida edi. Va darhaqiqat, o'z manfur niyatlarini ancha-muncha amalga oshirib ulgurdi.

XX asrning 70-yillariga kelib, aytish mumkinki, «Sovet Ittifoqi» atalmish ulkan bir hududda hukmron mafkuraning chuqur tanazzuli sharoitida voqean «manqurtlar saltanati»⁴ shakllantirilgan edi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy

⁴ Biz «manqurtlar saltanati» deganda ayni ich-ichidan chirib bitayotgan hukmron mafkuraning siyosiy va g'oyaviy zug'umini amalga oshiruvchilarni nazarda tutmoqdamiz. Chunki xuddi o'shalar sho'rolar istibdodining oxirgi kunlarigacha xalq nafratiga sazovor bo'lib ulgurgan o'lik mafkurani zo'r berib ongimizga tiqishtirish bilan mashg'ul edilar. Ochiq tan olib aytish kerakki, ushbu "manqurtlik"ning oqavalari mustaqillik davrida ham ba'zi "sobiq"lar ongini butkul tark etgan deb bo'lmaydi. Ular endi

majlisining birinchi yig'ilishida Prezident I.A. Karimov bu haqda shunday fikr bildiradi: *"Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi."* Ular yo'q emas edi, hayotimizda mavjud edi. Xalq ongini, uning barcha faoliyatini markaz izmiga bo'ysundirish asosan o'shalarga ishonib topshirilgan edi.

Allohga beadam shukrlar bo'lsinki, bizning xalqimiz aksariyati ushbu makrdomiga to'liq tushib qolmadi. Chunki tuzum olg'a surgan marksistik mafkura bizning necha ming yillik ma'naviy merosimiz, milliy an'analarimiz, xalqimiz ruhi uchun mutlaqo begona bo'lib, faqat siyosiy va iqtisodiy qaramlik sharoitida chetdan zo'ravonlik yo'li bilan kiritilgan va shafqatsiz usullar bilan ongimizga singdirishga urinilgan edi. Ammo, taassuf bilan qayd etish lozimki, totalitar tuzumining urinishlari baribir muayyan "natija"larga erishdi. Chingiz Aytmatov juda yorqin ifodalab bergan "manqurtlik kasali" odamlarimiz ongida ancha-muncha tomir otib ulgurdi. 70 yillik istibdod mobaynida bolshevistik mafkuraning yakka hukmronligi, ayniqsa, 1937-1938 yil qatag'onlaridan keyingi avlodni o'z milliy qadriyatlaridan, ma'naviy merosidan jiddiy begonalashuviga sabab bo'ldi. Ana shu majburiy yuqtirilgan illat ba'zi insonlar ruhiyatida hanuz qaramlik asorati sifatida namoyon bo'lmoqda.

"O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz,- deb yozgan edi I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, - bu gul bilan qoplangan yo'l emas, totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati etkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir".⁵

Bugungi kunda ham ushbu poklanish jarayoni davom etmoqda. Yangicha, mustaqil tafakkur zarurati hanuz dolzarb, milliy mafkurani shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish bugunning ham eng muhim vazifasidir. Mustaqillik mas'uliyati ayni shu vazifalarni mukammal hal etishni taqozo qilib turipti.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'navit insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, imyon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujmiga duchor bo'lgan, qaramlik va julm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan

hukmron mavqega ega emaslar, ammo qo'llaridan kelganicha o'z onglariga mustahkam o'rnatib olgan eski "g'oyalarni", zohiran yangi davrga moslashtirib, yoshlar ongiga singdirishga urinib yotiptilar.

⁵ Karimov I.A. Asarlar. 1-jild, s. 359.

boshlaboq mamlakatimizda boy ma`naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma`naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi.

Jamiyat ma`naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta`minlovchi ma`naviy-ma`rifiy islohotlarning yo`nalishlari belgilab olindi.

«Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o`z yo`liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta`minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma`naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo`lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo`lish – bundan org`irroq va bundan sharafliroq vazifa yo`q bu dunyoda».

I.A.Karimov. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, T.1. 202-bet.



Mustaqillik dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz ma`naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketdi.

Xo`sh, ma`naviy merosning o`zi nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo`lmoqda?

Ma`naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma`naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me`yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san`at asarlari majmuidir. Ma`naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo`l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o`sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat

o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Inson ma'naviy dunyosi - nozik soha. Undagi vaziyatni osonlikcha, muayyan farmon yoki qaror qabul qilish bilan tuzatib bo'lmaydi. Uni o'nglash uchun yillar davomida muntazam va sabr-toqat bilan mafkuraviy, tarbiyaviy, ma'rifiy ish olib borish, amaliy chora-tadbirlar, hayotiy o'zgarishlar joriy etish taqozo qilinadi.

Milliy ma'naviyat millatning o'tmishi, buguni va kelajagini qamraydi, ularni yaxlit tizimda tutib turadi. O'tmish ajdodlarimiz merosi bugungi jahon darajasi bilan uyg'unlashtirilsa, mamlakatimizdagi voqe ahvolga tatbiq etilsa, undan kelajak kurtaklari unib chiqadi, kelajak siymosi shakllanadi.

Shu sababli ham I.A.Karimov O'zbekiston Prezidenti lavozimiga saylangan dastlabki kunlardan beri xalq ma'naviyatini yuksaltirishga birinchi darajali e'tibor qaratib kelmoqda. Hali sho'rolar tuzumi mavjud bo'lib, yurtimiz "sovet sotsialistik respublikasi" deb atalgan davrda - 1990 yil 24 mart Oliy Kengash sessiyasida O'zbekistonda birinchi marta Prezident lavozimi joriy etilib, Islom Abdug'anievich Karimov ushbu lavozimga munosib topilgach, O'zbekiston Prezidentining birinchi nutqidayoq *"xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va ma'naviy yuksaltirish"* masalasi⁶ davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi. Ma'naviyat degan so'zni yuqori doiralarda ishlatish mutlaqo urf bo'lmagan o'sha zamonlarda bu mutlaqo yangicha yondoshuv, o'sha paytlar respublika rahbari uchun katta jasorat edi.

Milliy mustaqilligimizning ikkinchi yilida Prezident *"O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li"* risolasini e'lon qildi. Ushbu kitobning alohida bobi *"Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari"* deb nomlandi va unda ilk bor xalq ma'naviyatini rivojlantirish masalalari batafsil tahlil etildi.⁷

1995 yil fevral oyida ilk bor ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilgan erkin va demokratik saylovlar hosilasi bo'lmish O'zbekiston respublikasi birinchi chaqiriq Oliy majlisining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Prezident I.A.Karimov *"O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari"* mavzuida katta ma'ruza qilib, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy rivojiga oid muhim masalalar bilan bir qatorda millatning ma'naviy takomili yo'nalishida ham yangicha yondoshuvlar, dolzarb muammolarning puxta o'ylangan echimlarini xalq namoyandalari muhokamasiga havola etdi. Unda, avvalo, 130 yillik mustamlaka asoratidan qutulib, qayta qad rostlagan mustaqil davlatchiligimizning betakror qiyofasi ochib berildi. Uning xalqimiz, millatimiz *"tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining"* samarasi, *"o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining"* natijasi ekanligi qayd etildi⁸. "Sotsializm" g'oyalarining xalqimiz hayotiga chetdan

⁶ Islom Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T.-«O'zbekiston»-1994, s. 65.

⁷ Karimov I.A. Asarlar. 1-jild, s. 76-85.

⁸ Karimov I.A. Asarlar. 3-jild, s. 6.

zo'ravonlik bilan joriy etilgani, ular xalqimizni manqurtlashtirish uchun xizmat qilgani ochiq aytiladi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Shunday ekan, davlat tuzumini, jamiyat hayotini demokratlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish barobarida ma'naviyatga ham doimo alohida e'tibor ajratish talab etilishi voqeiy zaruratdir. Prezident ma'ruzaning *"Yuksak ma'naviyat - kelajak poydevori"*⁹ deb nomlangan faslida mustaqillikning dastlabki to'rt yilida bu sohada erishgan yutuqlarni tilga olish barobarida kelajak yo'nalishlarni ham batafsil tahlil etib berdi. *"Endigi asosiy vazifa,-deb fikrini izhor etdi yurtboshimiz,-kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchining orta borishidir"*¹⁰. Buning uchun har birimiz *"bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab", "buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak"*¹¹.

Umuman qayd etish joizki, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning deyarli har bir nutqida ma'naviyat masalasiga e'tibor qaratiladi, har bir asarida ma'naviyat masalalariga oid muhim fikrlar, yangicha g'oyalar olg'a surilgan.

2008 yili *"Ma'naviyat"* nashriyotidan O'zbekiston Prezidentining Islom Karimovning *"Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch"* nomli ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan alohida risolasi bosilib chiqdi. Kitob 4 bobdan iborat bo'lib, *"Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir"* deb nomlangan birinchi bobida *"ma'naviyat"* tushunchasi, ma'naviyatli va ma'naviyatsiz insonlar, ma'naviyatni shakllantiruvchi mezonlar ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi kabi masalalar keng omma uchun tushunarli tilda batafsil bayon qilingan¹². Kitobning ikkinchi bobi *"Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish"* deb atalgan va unda avvalo milliy g'oyaning ma'naviy hayotdagi o'rni, mustaqillik davri jamiyatimizdagi milliy-ma'naviy tiklanish va yuksalish jarayoni, tilimiz va dinimiz, milliy va diniy bayramlarimiz mavqeining qayta tiklanishi, islohotlarning ma'naviy ahamiyati haqida so'z boradi¹³. Uchinchi bobga *"Ma'naviyatga tahdid – o'zimiz va kelajagimizga tahdid"* deb nom qo'yilgan bo'lib, unda ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalari bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida naqadar dolzarblashgani va endi bu masalalar faqat milliy hududda chegaralanib qolmay umumbashariy muammoga aylanayotgani tahlil etiladi¹⁴. Dunyodagi eng buyuk jasorat ma'naviy jasoratdir, deb xulosa qiladi I.Karimov *"Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori"* deb nomlanagan oxirgi bobda¹⁵. Prezidentning chuqur ishonchiga ko'ra ma'naviy tarbiyaning ibtidosi har bir inson qalbiga quloq tutish va ko'ngliga yo'l topishdan boshlanadi va bu sohada ziyolilarimizning o'rni va mas'uliyati o'ta muhimdir.

⁹ O'sha kitob, s. 33-42.

¹⁰ O'sha kitob, s. 34.

¹¹ O'sha kitob, s. 7.

¹² Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., *"Ma'naviyat"*, 2008. S.18-70.

¹³ Shu kitob, s. 71-109.

¹⁴ Shu kitob, s. 110-127.

¹⁵ Shu kitob, s. 159.

Albatta, O'zbekiston Prezidentining Islom Karimovning ushbu risolasi¹⁶ va ma'naviyatga doir boshqa fikr va mulohazalari alohida yirik jiddiy tadqiqot mavzusidir. Ammo mazkur tadqiqot yakunlarini kutmay turib ham, I. A. Karimov asarlarini shu yo'nalishda e'tibor bilan o'rganib chiqqan odam Prezident qarashlari milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirish yo'lida o'q tomirlarni aniq va muayyan ko'rsatib berganligiga amin bo'ladi. Shundan kelib chiqib, ushbu kitobdagi mavzularni bugungi kun nuqtai nazaridan yoritish jarayonida nazariy zamin sifatida asosan Prezident I. A. Karimov asarlarida bildirilgan fikr va xulosalarga tayanildi.

Ma'naviyatsiz buyuk kelajak yo'q. Chunki uni robotlar emas, insonlar yaratadi. Insonlar ongi qanday bo'lsa, mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo'ladi. Eng katta boylik - insonlar ruhiyatida yashirin. Ana shu sarmoya tobora kengroq miqyosda muomalaga kirgan sari, hosil unumliroq bo'la beradi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqei yuksala beradi, o'zbeklar o'z ajdodlariga munosib ulug'vorlik kasb eta beradi.

2. Ma'naviyatning jamiyat hayotida tutgan o'rni

Ma'naviyat- ijtimoiy ong shakllaridan biri, olamni amaliy-hissiy o'zlashtirish turi. Ma'naviyat inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'lib, insonning mahorati bilan ham chambarchas bog'liqdir. San'at keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish, (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan.

Ma'naviyat-arixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi. Ma'naviyat-taraqqiyoti yoki tanazzuli ijtimoiy munosabatlar tabiatiga, muayyan kuchlar nisbatiga, mafkuraviy hayot xususiyatlariga, jamiyatda shaxs egallab turgan maqomi kabilarga bog'liqdir. San'atning jamiyat hayotida mustaqil ravishda amal qilishi vorisiylik qonuniyatining namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq.

Ijtimoiy ongning boshqa shakllarida bo'lganidek, ma'naviyatda ham bilish va mafkura bir-biri bilan chirmashib, o'zaro bog'lanib ketgan. Ma'naviyatning turli ko'rinishlarida bilish va mafkura o'zaro mutanosiblikka amal qiladi. Shulardan biri bu- san'atdir. San'atning bilish jarayonidagi vazifasi badiiy adabiyot vositasida yaqqol ko'zga tashlanadi. San'at bilishning alohida turi sifatida mushohada etilganda, odatda, badiiy adabiyot asarlariga suyaniladi. Musiqaning bilish-anglash imkoniyatlari badiiy adabiyotga nisbatan biroz cheklanganligi ma'lum. Lekin

¹⁶ "Risola" so'zini oxirgi paytlarda ba'zan ruscha "broshyura" ma'nosida ishlatish hollari uchramoqdaki, bu butkul xato bo'lib, "risola" deganda o'zbek tilida muayyan mavzuga bag'ishlangan alohida asar, ilmiy tadqiqot, ya'ni monografiya nazarda tutiladi. Uning hajmi turlicha bo'lishi mumkin, bu endi mavzuning salmog'iga bog'liq.

voqelikni alohida noziklik, sezgirlik, samimiylik ruhida in'ikos etishda musiqaning ahamiyati katta, u odamlarning ruhiy holatini, ichki dunyosini, kechinmalarini, his-tuyg'ularini betakror nozik ohang-kuylarda ifodalaydi. Huddi shunga o'xshash vazifani me'morchilik ham bajaradi. Me'morchilikda davr hususiyatlari va belgilari, odamlarning maishiy hayoti, did-farosatlari, umid-orzulari aks etadi. San'at o'z mavzui doirasida bo'lsa ham, fan singari beqiyos bilish imkoniyatlariga ega. Lekin san'atning badiiy bilish anglash jarayoni o'ziga hos hususiyatlar doirasida sodir bo'ladi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'laroq, jozibali anglashga yordam beradi. San'at uchun inson bosh mavzu bo'lib hizmat qiladi. San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. San'at narsalarda, tabiat hodisalarida inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'no izlaydi, inson qalbini poklaydi, uning har tomonlama kamol topishida muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

SAN'AT TURLARI - badiiy madaniyat tizimining tarkibiy qismi. San'atda xilma-xil turlarning vujudga kelganligi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot hosilasidir. Qadimda badiiy faoliyat turlarga bo'linmagan edi. Keyinchalik san'atning bir necha turlari qaror topdi. San'at turlari badiiy me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, aktyorlik, kino san'ati va boshqalar o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi.

San'at turlari bir-birining o'rnini bosa olmaydi: ularning har biri mustaqil, o'ziga xos va betakror bo'lib, voqelikning muayyan bir tomonini bevosita aks ettiradi, o'sha tur u yoki bu insoniy his-tuyg'ularni ifodalashda boshqa turlarga nisbatan ustuvor o'rin egallaydi va ayni paytda, muayyan cheklanganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan: San'at, badiiy adabiyot hayotni keng va teran aks ettirishda, inson ruhiy-aqliy tomonlarini ochib berishda tengi yo'q san'at turi bo'lsada, u ma'lum cheklanganliklarga ega. Badiiy adabiyot inson his-tuyg'ulari, sezgilari, qirralarini ifodalashda musiqaga, tasviriy san'atga teng kela olmaydi.

Adabiyot, musiqa, tasviriy san'at «qorishmasi»dan vujudga keladigan kino san'ati ham ba'zi jihatlari bilan adabiyot, musiqaning o'rnini bosolmaydi. Shu bois, san'atning bir turini boshqasiga qarshi qo'yish ma'qul emas: san'at turlari teng asosda harakat qilib, voqelikni aks ettirishda bir tur boshqa turlarga nisbatan ustuvor darajada namoyon bo'lishni e'tirof etish oqilonadir.

San'at hodisalarning aniq tuyg'uli qiyofasini aks ettirishi yoki aks ettirmasligiga qarab tasvirli va tasvirsiz ko'rinishlarga ham egadir. Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda hayot manzaralari voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratish orqali namoyon bo'lsa, adabiyot va musiqada hayot manzaralari fikrlar va tuyg'ular oqimini umumlashtirish asosida aks ettiriladi. San'at idrok etish jihatidan ham har xil ko'rinishlarga bo'linadi; ayrimlari ko'z bilan ko'riladigan asarlar bo'lib, tomoshali san'at turlari deb ataladi. Bularga tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, badiiy foto asarlari kiradi. Musiqani eshitiladigan san'at turi, deymiz.

Teatr san'ati esa ham tomoshali, ham eshitiladigan san'at turidir. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi bo'lishi bilan birga inson faoliyatining badiiy bo'lmagan sohalari bilan ham chambarchas bog'liq. San'at turlari xususiy-badiiy burch-vazifalari bilan birga, foydali-amaliy burch-vazifalarini ham ba-jaradilar. Masalan: san'at, harbiy musiqa davlat madhiyasi yoki adabiyot, tasviriy san'at

sohalarining (bayroq, tamg'a) axborot-hujjat tomonlari shunday hususiyatga egadir. Hozirgi davr badiiy madaniyatida san'at va boshqa sohalar o'rtasidagi chegaralar tobora yemirilib bormoqda va ular o'rtasidagi samarali hamkorlik san'at va fan-texnika aloqalarida yaqqol ko'rinadi.



Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekistonda maorif va madaniyat ishlarini eng muhim va dolzarb soha sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

1992 yil 2 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni hamda 1991-1996 yillarda e'lon qilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta'lim sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tizimida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog'chalari hamda "bolalar bog'chasi-maktab" majmui tarmog'i rivojlandi. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, komp'yuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etildi.

"Sog'lom avlod uchun", "Iqtisodiy ta'lim", "Qishloq maktabi", "Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tiklash" va boshqa tarmoq dasturlari ishlab chiqildi hamda ta'lim jarayoniga tadbiiq etila bordi.

Oliy ta'lim sohasida ham ko'plab yangi o'quv yurtlari ochildi. 1992 yil 28 fevpaldagi Prezident farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. eng zarur zamonaviy mutahassislar bo'yicha yangi oliy o'quv yurtlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent moliya instituti, Navoiy

konchilik instituti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Andijon iqtisodiyot va boshqaruv instituti, Jizzax politexnika instituti, Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti hamda viloyatlarda yirik universitetlarning filiallari tashkil etildi. 1997 yil boshlarida Respublika Oliy ta'lim tizimida 58 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan 16 ta universitet va 42 ta institut faoliyat ko'rsatdi. Ularda 164 ming talaba o'qidi, 18,5 ming professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi.

Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etildi.

Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning chet elda o'qishini qo'llab quvvatlash maqsadida "Ulug'bek", "Umid", Respublika bolalar fondi, "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Iste'dod" jamg'armalari tashkil etildi.

Ta'lim tizimida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilsada, hali bu sohada jiddiy kamchiliklar mavjud edi.

Xususan, ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog'lanmagan edi. O'quv jarayonining moddiy texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolda edi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv adabiyotlari va dtdaktik materiallar etishmasdi. Yuqori malakali pedagoglar etishmasdi. Maktab o'quvchilarida mustaqil fikr shakllantirilmayotgan edi.

Ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida hamkorlik, integraciya o'rnatilmagandi. Kadrlar tayyorlashda marketing mavjud emasdi. Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy taraqqiy topgan davlatlar darajasidan ancha orqada edi. Shu boisdan ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi.

Prezident I. Karimov tashabbusi ta'limni isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. I. Karimov 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning 1X sessiyasida "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizni ro'yobga chiqarish taqdiri, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslab berildi.

1997 yil 27 avgust kuni Oliy MAjlis 1X sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dasturda, hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta'lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan.

Birinci bosqich (1997-2001 yillar) da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro'yobga chiqarildi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillarda) Milliy dastur to'liq ro'yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillarda) to'planga tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxulq, umummillat ishiga aylandi. 2001 yilda Milliy dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichi yakunlandi.

Islohotlarga mos ravishda maktabgacha ta'lim faoliyati tubdan o'zgardi. Xususiylar va xonadon bog'chalari tarmog'i kengaydi. Respublika bo'yicha 84 foiz maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim muassasalarida, xo'jalik hisobidagi qisqa muddatli guruhlarda, maktablar qoshidagi tayyorlov guruhlari, savodxonlik va boshqa turdagi markazlarda amalga oshirilmoqda. 16 foizi esa oilalarda maktabga tayyorlanmoqda. 2001-2002 yillarda Respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatdi, ularda 608500 nafar o'g'il-qizlar tarbiyalandi, 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston hukumati ta'limni rivojlantirish uchun katta mablag' ajramoqda. Birgina 2001 yilda ta'lim harajatlari davlat byudjeti sarf-xarajatlarining 36 foizini tashkil etdi. Ta'lim uchun 150 mln. AQSh dollaridan ziyod chet el investiciyasi sarflandi. Ular yangi ta'lim binolari barpo etish, ularni eng zamonaviy o'quv laboratoriya uskunalarini va o'quv mebellari bilan jihozlash uchun sarflandi. Mustaqillik yillarida 848398 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 2244 ta yangi umumta'lim maktab binolari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Respublikamizda 9661 umumta'lim maktablarida 6 mill. Yaqin o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining birinchi bosqichi – 1997-201 yillarda 216 ming o'quvchi o'rniga ega bo'lgan 44 ta akademik licey va 291 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan: bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 2001-2002 o'quv yilida 62 ta oliy o'quv yurtida 180 mingdan ortiq bo'lajak bakalavrlar va 5 mingdan ortiq magistrantlar ta'lim-tarbiya oldilar. 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qildilar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati yuritilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biridir. 1997 yilda tashkil etilgan "Umid" jamg'armasi yo'llanmasi bilan 1997-2001 yillarda 785 nafar yigit-qiz rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborildi. Ulardan 519 davlatlarning oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborildi. Ulardan 519 nafari bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan Maxsus ishchi guruhi yo'llanmasi

asosida vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalarda ishlamoqda. 2002 yil iyulda Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti tashkil etildi va 160 ta dastlabki talabalar qabul qilindi.

Ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnikaviy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YuNESKO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorligi kengayib bormoqda. Ta'lim ravnaqi uchun 150 mln. AQSh dollari hajmida chet el investiciyalari jalb etildi. Oliy o'quv yurtlarining yuzlab professor-o'qituvchilari "Ustoz" jamg'armasi bilan xorijiy oliy o'quv yurtlarida malaka oshirib keldilar.

O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish uyg'otmoqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V. Shukshunov O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat, deb ta'rifladi. O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi "Ta'limning o'zbek modeli" deb e'tirof etildi.

Badiiy adabiyot. Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. Badiiy adabiyot rivojiga H. Karomatovning "Qur'on va o'zbek adabiyoti", O. Sharofiddinovning "Cho'lponni izlab", B. Qosimovning "Maslakdoshlar" asarlari ijobiy ta'sir etdi.

A. Oripov, O. Yoqubov, P. Qodirov, X. Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, p'esa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" romanida, Nazar eshonqulovning "Qora kitob" povestida, O'. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar", singari asarlarda mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am-alamlar haqqoniy tasvirlangan.

T. Malikning "Shaytanat", H. Shayxovning "Tutqin odamlar" asarlarida iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuyg'ulari tarannum etladi.

Me'morchilik va amaliy san'at. O'zbek xalqi me'morchiligi mohiyat e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilik ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'morchilikning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy majlis, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgandir.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga "Meridian", "Afrosiyob", "Buxoro", "Interkontinental", "Sheraton" mehmonxonalari, "O'zekspomarkaz", Milliy bank, Markaziy bank, "Toshkentplaza" savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markaz, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan "Oloy", "Chorsu", "Otchopar", "Yunusobod", "Miroybod", "Parkent", "Qo'yliq" va boshqa bozor binolari, shuningdek "Yunusobod" tennis markazi, "Jar" sport markazi singari zamonaviy inshootlar barpo etildi.

O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadalik bilan olib borilmoqda. Bunga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'laoladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida yuzlab akademik licey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. Haykaltarosh I. Jabborov va K. Jabbarovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur hayokallari, Farog'na va Quvapda al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R. Mirboshiev ijodiga mansub "Z.M. Bobur" (1993, Andijon), "Abdulla Qodiriy" (1994, Toshkent), "Cho'lpon" (1997, Andijon), "Ona" (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999 yilda Termizda "Alpomish" haykali va majmua-kompozitsiyasi (A. Rahmatullaev va boshqalar) bunyod etildi.

O'zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va "Tasviriy oyina" respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiev, Bohodir Jalolov va boshqalar halqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va minatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga huzurhalovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi.

Kino san'ati. Mustaqillik yillarida kino san'ati rivoj topdi. 1996 yilda "O'zbekfilm" tassarufida 8 ta kinostudiya, 30ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996 yilda tashkil etilgan "O'zbekkino" davlat akcionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kino san'atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002 yillarda 60ga yaqin

badiiy filmlar yaratildi. “Temir xotin”, “Dallol”, “Sharif va Ma`ruf”, “Tilla bola”, “Buyuk Amir Temur”, “Yulduzingni ber, osmon”, “Kenja singal” va boshqa filmlarda milliylik va zamonaviylik uyg`unligi yaqqol nomioyon bo`ldi. 1997 yil 22-29 may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo`lib o`tdi. Unda 32ta davlat va 8ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san`ati ustalari qatnashdi. “Buyuk Amir Temur” filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini – “Neksiya” avtomobili berildi.

Mustaqillik yillarida o`nlab xujjatli filmlar yaratildi. “O`zbekiston bahorlari”, “Ulkan odim”, “Ular Germaniyada o`qigan edilar”, “O`zbekiston qahramonlari”, “Umid qaldirg`ochi”, “Istiqlol fidoyilari” va shular jumlasidandir.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O`zbekistonda ma`nviyat rivojlandi, yangi ma`no-mazmun bilan boyidi, O`zbekistonning jahon mamlakatlari orasida o`z o`rnini topishida muhim omil bo`lib xizmat qildi.

3. O'zbekiston - ma'naviy o'zgarishlar davrida

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarxini bilish, milliy ahloqiy qadriyat hamda an'analar va muqaddas dinimizning o'zni va ahamiyati katta. Biron bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida "O'zbekistonning yangi tarixi markazi" tashkil etildi.

O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sohifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998 yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondoshuvlardan hukmron kommunistik mafkura ta'siridan xalos etildi. Necha o'n yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan Samarqand va Shahrisabzda o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bog'lar barpo etildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko'rkam Amir Temur maydonlari barpo etildi va ulug'vor haykallari o'rnatildi. Shuningdek, bu shaharlarga "Amir Temur" ordeni topshirildi.

1997 yilda Buxoro va Xeva shaharlarining 2500 yilligi, 1999 yilda buyuk vatanparvar siymo Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi, 2002 yilda Termez shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq ziyolilari nomi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari nashr etildi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui bunyod etildi. Mazku majmua qoshida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi qurilib, 2002 yil 27 avgust kuni foydalanishga topshirildi.

Bu yodgorliklar majmualari jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, Milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga hamda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbek xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlari bor. O'zbek xalqining shakllanishi qanchalik uzoq tarixiy jarayonda sodir bo'lgan bo'lsa, uning milliy qadriyatlari ham shunchalik uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan.

Qadriyatlar dastlab mahalliy mazmunda, ya'ni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va hakoza hududlarda yashovchi elatlarga xos urfodatlar, rasm-rusumlar, marosimlar tarzida shakllangan. So'ngra ularning eng yaxshilari asrlar davomida saralanib umummilliy qadriyatlar darajasiga

ko'tarilgan. Turli mamlakatlarga xos eng yaxshi qadriyatlar saralanib umuminsoniy qadriyatlarga aylanadi. Shu boisdan ham har bir inson uchun o'z milliy qadriyatlarni, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarni bilish ham farz, ham qarzdır.

Mustaqillik yillarida halqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma'xno mazmun bilan boyitish yo'lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

1994 yil 23 apreldagi Prezident Farmonlari asosida tashkil etilgan Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik Markazi o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g'oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo'naltirishga qaratilgan muhim tadbirlar ko'rgazmalar tashkil etish yo'lga qo'ydi. Markaz tomonidan aholi orasida o'tkazilgan sociologik tadqiqotlar, so'rovlar va shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining ma'naviy-tarbiyaviy faoliyati saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1996 yil yanvarda Respublika "Ma'naviyat va marifat" jamoatchilik Markazi huzurida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi. 1996 yil 27 sentyabrda Respublika Vazirlar Mahkamasining " "Oltin meros" xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi qaroriga binoan mazkur jamg'arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab quvvatlandi.

"Oltin meros" xayriya jamg'armasi "Xalq merosi durdonalari" ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san'at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko'rik tanlovlar o'tkazish bilan shug'ullanmoqda. 1996-2002 yillarda "Oltin meros" jamg'armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimizning ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorij davlatlaridan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. Shuningdek, u xalqimizning rasm rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma'no-mohiyatini hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo'shmoqda.

Qadim zamonlardayoq yuritimizda din erkin mavjud bo'lgan. Zardushtiylar, buddiylar, moniylar, musulmonlar va boshqa diniy e'tiqoddagilar inoqlikda yashagan, tenglik, erkinlik g'oyalariga amal qilgan. Xalqimiz ma'naviy jihatdan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan islom dinini qadrlaydi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manbaa hisoblanuvchi "Al-Jomi' As-Sahih" nomli asar yaratib islom dinini boyitdi. Bobokalonlarimiz Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Xo'ja Ahmad Yassaviylar insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlar ijodkoridirlar.

Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug' nomi o'z o'rniga qo'yildi.

1993 yil sentyabrda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar qayta tiklandi, uning ijodiga bag'ishlangan qator risolalar chop etildi.

1998 yil 23 oktyabrda Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy tavqim bo'yicha 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui ochildi. Yubiley munosabati bilan Imom al-Buxoriyning 4 jildlik "Al-Jomi` Al-Sahih" kitobi o'zbek tilida nashr etildi.

2000 yil 16-17 noyabr kunlari Marg'ilonida islom huquqining asoschilaridan biri Burxoniddin al-Marg'loniy tavalludining 910 yilligi, Samarqandda Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ularning xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burxoniddin al-Marg'loniyning islom huquqiga bag'ishlangan "Hidoya" kitobi nashr etildi. Shuningdek, islom olamining taniqli allomalari Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi keng ko'lamda nishonlandi.

O'zbekiston Prezidentining 1992 yil 27 martdagi farmoni bilan Ro'za-Ramazon hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi. Respublika musulmonlarining istak va hohishlariga ko'ra Qurbon hayiti ham tiklandi, dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Mustaqillik yillarida 40 ming o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldi. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. Hozir "Islom nuri" gazetasi chiqmoqda. Qur'oni Karim 8 marta 1 mln. nusxada nashr etildi. Bu tadbirlar nafaqat dindorlar uchun qilingan marhamat bo'lib qolmay, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum udumlari, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

Prezidentning 1992 yil 7 martdagi farmoni bilan Islom dini va uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida islom instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba-yoshlar ta'lim olmoqdalar. 1999 yilda tashkil etilgan Toshkent Islom Universitetida 750 ta talaba o'qimoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstituciyasida va 1998 yil 30 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, 31-modda.



Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida din, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqei tiklandi, diniy ulamlarning qadr-qimmati o`z joyiga qo`yildi.

Mamlakatimizda o`zbek tilining xalq va davlat turmushidagi asosiy ahamiyati va o`rni qayta tiklandi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4 sessiyasi "Davlat tili to`g`risida"gi Qonunni qabul qildi. Qonunda o`zbek tili o`zbek xalqining ma`anviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo`llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta`minlanishi belgilab qo`yildi. O`zbekistonda Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisob-kitobi, statistika va moliya ishlari o`zbek tilida yuritilmoqda. Respublikaning ma`muriy hududiy birliklari, maydonlari, ko`chalari, geografik o`rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o`zbek tilida yozib qo`yildi. Natijada o`zbek xalqining milliy qadr-qimmati, mustaqil

davlatimizning mavqei qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O`zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha miilatlarning tillari, qadr qimmatini o`z o`mini topdi.



Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mustaqillikdan so'ng Prezedentimiz tashabbusi bilan yurtimizda ma'naviyat va san'at sohalariga alohida etibor qaratildi.

Xususan ma'naviyat sohasiga alohida etibor berildi. Chunki ma'naviyatsiz millat hech qachon taraqqiyotga erisha olmaydi. Prezidentimiz I.A. Karimovning "yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ham shunga alohida to'xtalib o'tib shunday degan edi: "insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buning tasdig'ini uzoq va yaqin tarixdagi ko'p-ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi."

Bundan tashqari san'at sohasida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda respublikamizning 64 ta oliy ta'lim muassasalarida 286,3 ming talaba, shu jumladan 273,7 ming talaba bakalavriatda va 12,6 ming talaba magistraturada tahsil olmoqda. Bu esa ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning milliy badiiy an'analarning mazmuni va shakllari bilan tanishtirish orqali talabalarni ma'naviy estetik tarbiyalashning samarali yul-yuriqlarni ishlab chiqish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqarish zaruratini hosil qiladi. Ushbu yo'nalishda oliy ta'lim muassasalarida badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston qo'shiq bayrami to'g'risida"gi 1996 yil 18 noyabr N403 son qarori ham yoshlar badiiy havaskorligi orqali talabalarni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash ishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Zero Qarorda ushbu tadbirni "O'zbekiston – Vatanim manim" g'oyasini madh etuvchi, bunyodkor, mehnatkash xalqimizni ulug'lovchi, insonlar qalbida muqaddas Vatan tuprog'ini, mustaqillikni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, zurur bo'lsa, jon fido qilishga undovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlar bayrami sifatida o'tkazish" vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kelajak ovozi" O'zbekiston yoshlarining har yilgi respublika tanlovini o'tkazish to'g'risidagi 2006 yil 14 mart, N45 qarori mamlakatimizning barcha mintaqalarida yashovchi qobiliyatli va iqtidorli yoshlarni aniqlashga, fan, san'at, zamonaviy texnologiyalar sohasida salohiyatlarini ochish uchun ularga yangi imkoniyatlar yaratib berishga qaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilsin", deb nomlangan asarida: "Sir emaski, ba'zan beozorgina bulib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi", dedilar. Mafkuraviy hayot shu hikmatning haqligini har kuni isbotlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Istialol va ma'naviyat. T., 1994.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.-«O'zbekiston»-1996,
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.- «O'zbekiston»-1996,
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.- «O'zbekiston» -1996,
7. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. 1997 y. 6-jild,
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000.
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000.
11. Falsafa qomusiy lug'at.